



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



## PAREMIYA TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Qodirova Ziyodaxon**

*Kokand University, the teacher of world languages department*

[godirovaziyodaxon32@gmail.com](mailto:godirovaziyodaxon32@gmail.com)

### **Annotatsiya**

*Ushbu mavzuda paremiya tushunchasi, ya'ni maqol va matallar kabi xalq og'zaki ijodiga mansub hikmatli ifodalar o'rganiladi. Paremiya birliklarining asosiy xususiyatlari — qisqaligi, obrazlilik, barqaror tuzilishi va chuqur ma'noga egaligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning xalqning hayotiy tajribasi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettirishdagi o'rni yoritiladi. Mavzu paremiya birliklarining tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *paremiya, ibratli fikr, milliy meros, masallar, matal, tilshunoslik, adabiyotshunoslik.*

Kishilik jamiyati qanchalik taraqqiy topib yuksalmasin, hech qachon o'z o'tmish ildizlaridan voz kechib yoki unutib ketolmaydi. Aksincha, o'z tarixini, madaniyatini, ajdodlardan qolgan merosini saqlab qolishga va kelajak avlodga yetkazishga bor kuchi bilan harakat qiladi. Ayni shu jarayonni nutqda ya'ni og'zaki shaklda ham ko'rishimiz mumkin. Har bir xalq o'z madaniyatiga, urf-odatiga, o'ziga xos turmush tarziga ega va bu ularning so'zlashayotgan so'zlarida o'z aksini topadi. Bu kabi millatning o'zligini ochib beruvchi milliy qadriyatlar bizga xalq og'zaki ijodi orqali ya'ni maqollar, matallar, masallar, topishmoqlar va yana shu kabi janrlar orqali yetib kelgan. "Paremiya (yun. paroimia — hikmatli so'z, zarbulmasal, hikoya, maqol) – ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm, frazeologizm kabi hikmatli iboralar, kontekst sharoitlardan tashqari hamma so'zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan mazmundagi fikr [1]. Paremiya – barqarorlik hodisasi bo'lib, butun mazmunni, semantik yaxlitlikni ifodalaydi. "Paremiya" tushunchasining etimologiyasi tilshunoslikdan tashqari, bibliografik variantga ham ega. Diniy adabiyotga ko'ra, bu atama yunon tilidan olingan va dastlab pravoslav cherkoviga sig'inish bilan bog'liq. Paremiologiya sohasi qadim zamonlardan boshlab olimlarda qiziqish uyg'otib kelgan. Aristotel maqol va matallarni (paremiya) birinchi bo'lib tasnif qilgan va sistemalashtirgan [2]. Paremiologiyaning fan sifatida shakllanishi o'tgan asrning boshiga to'g'ri keladi va birinchi navbatda, A. Taylor nomi bilan bog'liq bo'lib, maqollar, ezgu so'zlar, iboralar va taqqoslashlar haqida juda ko'p nazariy manbalar va fikrlar beradi.

Yevropa tilshunosligida XVIII asrning boshlarida German paremiografi W. Wander Yevropa xalqlariga oid 250,000 dan ortiq maqollarni o'z ichiga olgan 5 ta



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kitobdan iborat paremiologik lug'atni yaratdi. Va bu ishi bilan u zamonaviy Yevropa tilshunoslikda paremiografiya sohasiga tamal toshini qo'ydi. Biroz vaqtdan so'ng R.C. Trench "On the lessons of proverbs" nomli katta hajmli ingliz tili paremiologik lug'atini yaratdi va bu asar ingliz va Amerika nashrlari paremiologiya sohasi bilan shug'ullanuvchilar uchun mukammal qo'llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda[3].

A. Taylor o'zining 223 sahifadan iborat "The proverb" asarida maqollarni atroflicha tahlil qilgan va paremiologiya sohasining qay darajada boy soha ekanligini ko'rsatib bergan. Jumladan, asarning birinchi qismida u maqollarning kelib chiqishi, muammolari, ta'rifi, metaforik maqollar, variantlari, xalq og'zaki ijodiga oid maqollar, maqollar va adabiyot, boshqa tillardan kirib kelgan maqollar, bibliikal maqollar va tub maqollar va ularning muqobil variantlari haqida bo'lsa, ikkinchi qismida esa maqollarni tarixiy, tub, o'zlashgan, huquqiy, mahalliy, diniy, ob - havo va tibbiyotga oid, urf odatlarni o'zida mujassamlashtirgan iboralarni turkumlarga ajratgan.

Paremiyalar avloddan avlodga og'zaki usulda o'tib kelganligi uchun ularni xalq og'zaki ijodining mahsuli deb qaraladi va adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi. Bunga sabab maqollarning ko'p qismi she'riy shaklda bo'ladi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi. Shu bilan birga paremlar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani tufayli tilshunoslikning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Dunyoga mashhur paremiolog Wolfgang Mieder maqolni "xalqning qisqa, umumiy ma'lum bo'lgan jumlasini, unda hikmat, haqiqat, axloq va an'anaviy qarashlar, avlodan-avlodga esda qoladigan hikmatli so'z [4]", shuningdek, maqollarning ta'rifiga ishora qilib - "Maqol – tajriba farzandi", "Maqol – ko'chani hikmati", "Maqol – to'g'ri so'z", "Maqollar – aniq so'z [5]" deya ta'riflaydi. Maqollarning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, ular ham tilshunoslikda ham adabiyotshunoslikda obyekt sifatida o'rganiladi. Paremiologiya sohasi frazeologiya bilan chambarchas bog'liq. Paremiologiya, umumiy, tilda mavjud bo'lgan turli xil ya'ni barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan ular o'zaro bir-biridan farqlanadi. Mahmud Qoshg'ariy o'zining mashhur "Devonu lug'otit turk" asarida kitobni "hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar" bilan bezaganligini ta'kidlaydi[6]. Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini badiiy jihatdan mukammal ifodalovchi hikmatli so'zlardan tashkil topgan. Maqollarda ifodalanishi kerak bo'lgan fikr va mazmun keng qamrovli bo'ladi. Har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea yoki hodisa ro'y bergan va bu voqea o'ta zukko, sinchkov dono ajdodlarimiz vakili tomonidan kuzatilishiga sabab bo'lgan. "Devonu lug'otit turk"dan olingan quyidagi misollarga murojaat qilaylik: "Besh qo'l barobar emas", "Ho'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq", "Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga meros bo'lib qoladi", "Quduqda suv bor, ammo it burni tegmaydi[7]. Yuqorida keltirilgan misollarga tayanib aytish mumkinki, maqollar yillar davomida xalq orasida sayqallanib, ixchamlashib, teran ma'noga ega shakllanib shu holatga kelgan. Bejizga maqollar xalq donoligining mahsuli deb atalmaydi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Paremiyalar o'tmishda ota - bobolarimizning hayoti, turmush tarzidan biz uchun bitmas tunganmas xazina desam mubolag'a bo'lmaydi. Maqol so'zining tarixiga nazar soladigan bo'lsak, "Devonu lug'otit turk"da "savlashmoq" so'zi berilgan. Buning otalar so'zini eslamoq ma'nosini anglatishi aytiladi. Bundan shunday xulosa qilamizki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni "sav" deb nomlaganlar. Keyinchalik Alisher Navoiy ijodida maqol atamasi "masal" tarzida beriladi: "masaldurkim — uyqu o'limdir". "Masal" atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi tez-tez uchray boshlaydi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llandi[8]. Professor P. U. Bakirovning "Milliy g'oya targ'ibotida o'zbek xalq maqollaridan foydalanish" nomli risolasida dunyo tarkibida maqollari bo'lmagan birorta ham til yo'q deb, qayd etadi va muallif maqolga quyidagicha ta'rif beradi: Har qanday tilda maqollar insoniyat jamiyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy faoliyatining biron bir sohasida maqollarni aks etmaganini kuzatmaymiz. Professorning bu fikrlariga dalil qilib atish mumkinki, paremiyalarni jamiyatning barcha qatlamlari birdek nutqida ishlata oladi. Ziyoli professor o'qituvchi ham, yoki oddiy usta ham maqollarni o'z nutqida ishlata oladi. Badiiy matnlarda paremiologiyaga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir qancha lingvistik o'ziga xosliklarni kuzatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Obrazli til: maqol va matallarda ko'pincha metafora yoki o'xshatish kabilar ishlatiladi. Ulardan fikrlarni qisqa va lo'nda, shu bilan birga jozibali, tushunarli, rang- barang qilib yetkazish uchun foydalanish mumkin.

2. Madaniy va tarixiylik xususiyati: maqol va matallarning kelib chiqish ildizi ma'lum bir xalqning, ma'lum bir davrning madaniyati, turmush tarzi, odatlari, an'analari haqida so'zlovchi ko'zgu hisoblanadi.

Paremiologiya so'zi grekcha "paranomia – hikmat, va logos – ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib, ma'lum bir tildagi maqol, matal, aforizm singari hikmatli iboralarni o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishi hisoblanadi. Maqol va matallarni yig'ib va saqlab boradigan yo'nalish esa paremografiya deyiladi. Umumiy olganda maqol, matal, aforizm, topishmoqlar bir-biriga o'xshasada, lekin ularni o'zaro farqli jihatlari bor. Jumladan, quyida shu birliklarga birma - bir ta'rif keltirib o'tamiz:

Maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol atamasi arabcha – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi[10]. Maqollar ixcham shaklga ega bo'lishiga qaramasdan, ulardan olam-olam ma'no va mazmun olish mumkin, shu bilan birga maqollar orqali fikr esda qolarli tarzda ifodalanadi. M. Gorkiy xalq maqollarining roliga yuksak baho bergan edi. "Eng ulug' donolik so'zining soddaligidir" – deb yozadi u. Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi. Bu ta'rifdan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



shuni tushunamizki, maqollar qisqa bo'lishiga qaramasdan, ular anglatayotgan ma'no butun bir yaxlit kitoblarga teng. Fikrimizni lo'nda qilib ifodalash uchun maqollardan foydalanamiz va bizning nutqimizni yana ham boyitadi, tinglovchi uchun obrazli bo'ladi. Xalq orasida maqol va matallarni o'z nutqida ko'p ishlatadigan odamga nisbatan "dono" yoki "so'zi keskir" jumlasini ishlatiladi. Ma'lum bir tilni chuqur tushunish uchun o'sha tilning leksik boyligi va grammatik jihatlarini bilishning o'zi yetarli emas. Permiakovning fikricha, boshqa bir tilni o'rganish va shu tilda so'zlashish, shu tilni anglash uchun, o'sha xalq madaniyatini o'rganish bilan bir qatorda, tildagi eng ko'p qo'llaniladigan paremiologik minimumni (so'zlashuvdagi eng ko'p ishlatiladigan maqol, hikmatli so'zlarni) bilish kerak. Ya'ni har bir til o'zining so'z boyligiga qarab paremiologik birliklar miqdori bir necha minglab, o'n minglab bo'lishi mumkin. Bu miqdorning ayrim qismigina doimo faol bo'ladi. Ingliz tilidagi bunday doimo faol maqollar ro'yxatini Mieder va Litovkina tuzib chiqishgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

The apple doesn't fall from the tree;

Beauty is in only skin deep;

Beggars can't be choosers;

Don't judge a book its cover;

New brooms sweep clean;

Better late than never;

Look before you leap;

When in Rome, do as Romas;

Time is money;

Never put off till tomorrow what you can do today kabilar.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, har bir tilda maqollar qanchalik ko'p bo'lmasin, ularning ma'lum bir qismigina jamiyat orasida keng iste'molda bo'ladi.

Matallar grammatik jihatdan gap hoida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llanadigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilingan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyrov H, Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – O'qituvchi, 1984. – B. 12.
2. Kabulova Umida Sayidmaxamadovna. "Frazologizm" atamasi haqida // International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishing centre of Finland, 2023. - B. 711-712
3. Richard Chenevix Trench. Proverbs and Their Lessons. London: G Routledge press. – P. 50.
4. Wolfgang Mieder. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood press, 2004. – P.119





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. Wolfgang Mieder. A proverb is worth a thousand words: Folk wisdom in the modern mass media. proverbium, London, Greenwood Press, 2005. – P.167
6. Bakirov B. U. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridagi maqollar xususida //, Samarqand. 2002 – B. 797
7. Madayev O, Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent. 2010 – B. 48
8. Hazratqulova Ozoda G'aniyeva. Paremiyalar va ularning tilshunoslikda o'rganilishi // Journal of universal science research. – 2023. - P. 373-377
9. Бакиров П.У. Книга в пословицах разных народов мира “Илм сарчашмалари” илмий – методик журнал № 10. Урганч – 2020. – Б. 202.
10. Imomov K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 303
11. Imomov K, Mirzayev T, Sarimsoqov B, Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 303
12. Ro'ziqulova Guliruxsor G'ofur qizi. Paremiologiya- Xalqning milliy madaniyat asosi sifatida // Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar, nomli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya, Toshkent, - B. 21-22